

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 4071,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 164,9 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2205,5 ming so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2019-yil yanvar-sentabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 4071,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,0 %ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmida eng katta ulushni savdo (28,1 %) va transport (25,1 %) xizmatlari tashkil etadi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan), %



2019-yil yanvar-sentabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning yanvar- sentabr oylarida o'tgan yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (284,8 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (211,4 mlrd. so'mga) va transport xizmatlari (123,1 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	4071,4	114,0
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	218,8	109,7
moliyaviy xizmatlar	688,7	164,9
transport xizmatlari	1 022,8	103,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	976,4	102,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	96,8	112,9
savdo xizmatlari	1 142,7	107,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	126,7	102,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	170,6	117,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	71,7	106,7
ijara xizmatlari	91,7	103,0
kompyuterlar va ma'iшии tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	144,5	105,7
shaxsiy xizmatlar	129,6	100,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	54,8	100,8
boshqa xizmatlar	112,0	126,3

**2019-yil yanvar- sentabr oylarida tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	4071,4	114,0
Urganch shahri	2062,4	122,1
Xiva shahri	128,6	116,6
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	173,1	104,5
Gurlan	182,5	103,3
Qo'shk o'pir	170,1	105,8
Urganch	326,3	106,2
Hazorasp	251,8	104,6
Xonqa	199,9	110,2
Xiva	134,0	103,8
Shovot	163,0	103,9
Yangiariq	149,9	107,1
Yangibozor	129,8	107,4

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lif va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

**2019-yil yanvar- sentabr oylarida
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**




2019-yil yanvar- sentabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (164,9 %), boshqa xizmatlar (126,3 %) ta'lif sohasidagi xizmatlar (117,6 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (112,9 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Tumanlar o'rtasida Urganch shahri (2062,4 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 122,1 % ni tashkil etdi.


Eng kichik hajm Xiva shahri (128,6 mlrd.so'm), Yangibozor tumanida (129,8 mlrd. so'm) va Xiva tumanida (134,0 mlrd. so'm) kuzatildi.

2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri (122,1 %) va Xiva shahri (116,6 %) qayd etildi.

2019 yil yanvar- sentabr oylarida tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



**2019-yil yanvar- sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %.**




Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarining bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan umumiyligi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1142,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmidagi ulushi 28,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 211,4 mlrd. so'mga oshdi.

2019-yil yanvar- senyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 70,9 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 22,3 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiyligi savdo xizmatlari hajmida 6,8 % ni egallaydi.

2019-yil yanvar- sentabr oylarida transport xizmatlarining tarkibi, %




Transport xizmatlarining umumiyligi hajmida quruqlikdaagi transport xizmatlari - 97,4 %, omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari – 2,1 %, pochta va qurerlik xizmatlari – 0,5 % ni tashkil etdi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalarini xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtida rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovasiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdag'i xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga tasir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 218,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 109,7 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar- sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (96,7 %) telekommunikasiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to'gri keladi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlарini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 688,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 164,9 % ni tashkil etdi.


2019-yil yanvar- sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (89,7 %) katta salmoqqa egadir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 72,6 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 27,4 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar– sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %




2018 - yil yanvar - sentabr oylari bilan taqqoslaganda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri viloyatda turizm faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiatи, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 112,9 % ni tashkil etdi.

Ta'lif sohasidagi olib borilayotgan islohatlar avvalam bor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019 - yil yanvar-sentabr oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 170,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi.


Ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlarining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda ta'lif sohasidagi xizmatlarning hajmi 46,2 mlrd. so'mga oshdi.

Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoxda. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi 2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 415,5 ming so'mga oshib, 2205,5 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati 112,1 % qayd etildi.

**2019-yil yanvar- sentabr oylarida viloyat bo'yicha
aholi jon boshiga ko'rsatkichlar**




Tumanlar o'ttasida Urganch shahri (14482,7 ming so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 120,8 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Xiva tumanida (935,6 ming so'm), Shovot tumanlarida (974,3 ming so'm) va Qo'shko'pir tumanida (1003,0 ming so'm) kuzatildi.

2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri (120,8 %) va Xiva shahri (114,7 %) da qayd etildi.

2019 - yil yanvar- sentabr oylarida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: U.Bardihev